
HAMIDJON RAHIMOV XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA VILOYATI KENGASHI DEPUTATI ETIB RO'YXATGA OLINDI

Joriy yil 24 iyul kuni Farg'ona viloyatida bo'shab qolgan o'rinlarga Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari saylovi bo'lib o'tdi.



Jumladan, 35-Tinchlik saylov okrugida o'tkazilgan saylovlarda saylovchilar o'zlari tanlagan munosib nomzodlar uchun ovoz berdilar.

Bo'shab qolgan o'ringa saylangan deputatlarni ro'yxatga olish to'g'risida viloyat saylov komissiyasi raisi Ilhom Mamajonovning qarori qabul qilindi.

Unga ko'ra, Oltiariq tumanidagi 1-IDUM direktori Hamidjon Rahimov Xalq deputatlari Farg'ona viloyati Kengashi deputati etib saylangani ma'lum qilindi.

Eslatib o'tamiz, H.Rahimov Prezidentimiz Farmoniga binoan "Shuhrat" medali hamda "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-07-27 16:28:45